SIYOSIY VA DIPLOMATIK MATNLAR TARJIMASINING LINGVISTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

S.Erkinova[1]

1. Osiyo texnologiyalar universiteti 1-kurs magistranti

Mas'ul muallif: Erkinova Sevinch, Osiyo texnologiyalar universiteti 1-kurs magistranti.

Received: 12 Noyabr 2026
Accepted: 17 Noyabr 2026
Published: 22 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Erkinova, S. SIYOSIY VA DIPLOMATIK MATNLAR TARJIMASINING LINGVISTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI / S. Erkinova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 176–179.

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada siyosiy va diplomatik matnlarni o‘zbek tiliga hamda o‘zbek tilidan ingliz va rus tillariga tarjima qilish jarayonining ko‘p qirrali lingvistik, semantik hamda pragmatik xususiyatlari har taraflama tahlil qilinadi. Siyosiy-diplomatik diskursga xos bo‘lgan terminologik aniqlik, ekvivalentlik mezonlari, stilistik hamda uslubiy muvofiqlik, institutsional kontekst va kommunikativ maqsadning ifodalanish jarayonlari lingvistik va qiyosiy-tipologik usullar yordamida yoritilgan. Tadqiqot davomida diplomatik bayonotlar, xalqaro shartnomalar, rezolyutsiyalar hamda rasmiy nutqlar misolida leksik-semantik transformatsiyalar, grammatik va sintaktik moslashuvlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada siyosiy terminlarning tarjimada semantik siljishga uchrashi, modal birliklarning va majhul nisbat qurilmalarining pragmatik yuki hamda ularni bartaraf etishning nazariy-amaliy yo‘llari ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: siyosiy diskurs, diplomatik matn, tarjima nazariyasi, terminologik ekvivalentlik, pragmatik muvofiqlik, stilistik rasmiylik, institutsional kontekst, leksik transformatsiya, xalqaro munosabatlar.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ПОЛИТИЧЕСКИХ И ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

Аннотация. В данной научной статье всесторонне анализируются лингвистические, семантические и прагматические особенности перевода политических и дипломатических текстов на узбекский, английский и русский языки. На основе лингвистического и сопоставительного анализа освещаются требования к терминологической точности, критерии эквивалентности, стилистическое соответствие и реализация институционального контекста в политико-дипломатическом дискурсе. На примере международных договоров, резолюций и официальных заявлений рассматриваются лексико-семантические трансформации, а также грамматические и синтаксические адаптации.

Ключевые слова: политический дискурс, дипломатический текст, теория перевода, терминологическая эквивалентность, прагматическое соответствие, официальный стиль, институциональный контекст.

LINGUISTIC AND PRAGMATIC FEATURES OF TRANSLATING POLITICAL AND DIPLOMATIC TEXTS

Abstract. This scientific article provides a comprehensive analysis of the linguistic, semantic, and pragmatic characteristics involved in translating political and diplomatic texts between Uzbek, English, and Russian. The paper explores the parameters of terminological accuracy, equivalency criteria, stylistic alignment, institutional context, and communicative goals within political-diplomatic discourse using comparative and contextual analytical methods. Through examples drawn from diplomatic statements, international treaties, resolutions, and official addresses, the study examines lexical-semantic transformations, as well as grammatical and syntactic adaptations. Furthermore, it scientifically substantiates the nuances of semantic shifts in political terminology, the pragmatic functions of modal verbs and passive structures, and practical methodologies for addressing translation challenges in formal diplomatic communication.

Keywords: political discourse, diplomatic text, translation theory, terminological equivalence, pragmatic alignment, stylistic formality, institutional context, lexical transformation, international relations.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida davlatlararo munosabatlarning keskin kengayishi, xalqaro tashkilotlar faoliyatining faollashuvi hamda ko‘p tomonlama diplomatik muloqotning murakkablashuvi tarjima faoliyatiga bo‘lgan amaliy va nazariy ehtiyojni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Ayniqsa, siyosiy va diplomatik matnlar tarjimasi xalqaro axborot almashinuvi, davlatlar o‘rtasidagi rasmiy hamkorlik, tinchlik hamda xavfsizlikni ta’minlashda, shuningdek, xalqaro huquqiy me’yorlarning to‘g‘ri shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlarda qo‘llanadigan har bir til birligi shunchaki leksik vosita emas, balki muayyan siyosiy pozitsiya, huquqiy majburiyat

yoki diplomatik munosabatning aniq lisoniy ifodasidir. Shu sababli siyosiy hamda diplomatik matnlarni tarjima qilish jarayoni oddiy leksik almashtirish yoki so‘zma-so‘z o‘girish amaliyoti bilan cheklanmaydi, balki u chuqur semantik va pragmatik tahlilni talab etadi.

Siyosiy va diplomatik matnlar, avvalo, o‘zining yuqori darajadagi rasmiyligi, mantiqiy izchilligi, konseptual va institutsional aniqligi hamda muayyan kommunikativ maqsadga yo‘naltirilganligi bilan boshqa nutq uslublaridan ajralib turadi. Ularning tarkibida davlat boshqaruvi, xalqaro huquq, tashqi siyosat, xavfsizlik, muzokara hamda xalqaro hamkorlikka oid terminlar juda yuqori zichlikda qo‘llanadi. Ushbu terminlarning semantik ko‘lami ko‘pincha muayyan siyosiy yoki huquqiy tizimning lisoniy va institutsional an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli tarjimon so‘zning umumiy lug‘aviy ma’nosini bilish bilan kifoyalanmasdan, uning sohaga xos bo‘lgan nozik ma’no jilolarini hamda rasmiy muloqotdagi yukini to‘laqonli anglay olishi lozim.

O‘zbek tarjimashunoslik maktabining asoschilaridan biri bo‘lmish G‘aybulla Salomov tarjima jarayonida til birliklarining mazmuni va uslubiy xususiyatlarini o‘zaro uyg‘unlikda hisobga olish zarurligiga alohida e’tibor qaratgan edi. Olimning tarjimashunoslikka oid fundamental qarashlarida tarjima faqat so‘zlarni bir dildan ikkinchisiga almashtirish emas, balki asliyat mazmunini hamda uning ekspressiv-uslubiy ruhini ikkinchi tilda qayta yaratish jarayoni sifatida baholanadi. Bu tamoyil siyosiy va diplomatik matnlar tarjimasida o‘ta dolzarbdir, chunki bunday matnlarda mazmunning noto‘g‘ri yoki noaniq berilishi nafaqat axborot xatosiga, balki rasmiy munosabatlarning va davlatlararo bitimlarning noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

Siyosiy-diplomatik diskursning yana bir muhim belgisi ehtiyotkorlik va neytrallik bilan tanlangan bilvosita ifodalarning qo‘llanishidir. Diplomatik muloqot amaliyotida keskinlikni yumshatish yoki tomonlarga manevr qilish imkoniyatini qoldirish uchun ehtiyotkor modal birikmalardan keng foydalaniladi. Masalan, diplomatik bayonotlarda tomonlar muzokaralarni davom ettirishga tayyor ekanligi, masala yuzasidan maslahatlashuvlar olib borilganligi yoki vaziyatni tinch yo‘l bilan hal etish tarafdori ekanliklari to‘g‘risidagi ifodalar muayyan muloyimlashtirilgan shaklda beriladi. Tarjima jarayonida ushbu birliklarning barchasi o‘zining pragmatik funksiyasini to‘liq saqlab qolishi shart. Siyosiy-diplomatik matnlarni tarjima qilishda eng ko‘p uchraydigan va jiddiy mas’uliyat talab etadigan muammolardan biri terminologik ekvivalentlikni ta’minlash va lingvistik muvofiqlikka erishishdir. Bir termin turli matn va kontekstlarda mutlaqo turlicha ma’no ifodalashi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi resolution so‘zi umumiy nutqda qaror yoki yechim ma’nolarida qo‘llansa, xalqaro tashkilotlar hamda BMT faoliyatiga oid matnlarda qat'iy ravishda rezolyutsiya tarzida tarjima qilinadi. Bu holatda tarjimon matnning janrini va uning institutsional manbasini chuqur hisobga olishi zarur bo‘ladi.

Shuningdek, ingliz tilidagi agreement, treaty, convention, covenant kabi birliklar o‘zaro yaqin va ma’nodosh bo‘lsa-da, ularni barcha holatlarda bir xil o‘girish rasmiy-uslubiy xatoga olib keladi. Amaliyotda agreement odatda bitim yoki kelishuv, treaty qat'iy ravishda shartnoma, convention xalqaro hujjat mazmuniga qarab konvensiya, covenant esa pakt tarzida qo‘llaniladi. Termin tanlashda hujjatning huquqiy maqomi, qo‘llanish sohasi va o‘zbek tilida shakllangan an’anaviy terminologik tizim har taraflama e’tiborga olinishi lozim.

Rus tilidagi siyosiy va diplomatik terminlar tarjimasida ham shunday nozik holatlar kuzatiladi. Masalan, международное сотрудничество birikmasi o‘zbek tilida xalqaro hamkorlik, двусторонние отношения ikki tomonlama munosabatlar, мирное урегулирование конфликта esa mojaroni tinch yo‘l bilan hal etish tarzida beriladi. Bu misollarda so‘zma-so‘z tarjima qilishdan ko‘ra, o‘zbek tilidagi rasmiy-siyosiy uslub me’yorlariga va leksik qoliplarga to‘liq mos keladigan ifodani tanlash muhim hisoblanadi.

Qudrat Musayev tarjima nazariyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida tarjima jarayonida mazmuniy muvofiqlik va til vositalarining o‘zaro munosabatiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Ushbu nazariy yondashuv siyosiy terminlarni tarjima qilishda ham muhim tayanch bo‘lib xizmat qiladi, chunki terminning shaklan o‘xshash muqobilini topish har doim ham uning semantik va institutsional mazmunini to‘liq ifodalashni anglatmaydi.

Siyosiy va diplomatik matnlar tarjimasida grammatik qurilmalarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning sintaktik yuklamasi o‘ta muhim o‘rin tutadi. Ingliz tilidagi modal fe’llar, majhul nisbat shakllari, murakkab sintaktik qurilmalar va shart ma’nosini ifodalovchi konstruksiyalar tarjimada alohida e’tibor va malaka talab qiladi. Masalan, ingliz tilidagi The parties shall respect the sovereignty of each state jumlasini ko‘rib chiqaylik. Ushbu jumla o‘zbek tiliga Tomonlar har bir davlatning suverenitetini hurmat qilishi shart yoki hurmat qilish majburiyatini oladilar tarzida tarjima qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu yerda shall yordamchi fe’li oddiy kelasi zamonni emas, balki rasmiy-huquqiy va imperativ majburiyatni ifodalaydi. Uni shunchaki hurmat qiladi shaklida berish ayrim kontekstlarda majburiyat ma’nosining kuchsizlanishiga olib kelishi va hujjatning huquqiy qimmatini kamaytirishi mumkin.

Sintaktik qurilmalarni o‘girishda yana bir muhim holat majhul nisbat (passive voice) qo‘llanishi bilan bog‘liqdir. Ingliz tilidagi The agreement was signed by the representatives of both countries jumlasi o‘zbek tiliga Bitim ikki davlat vakillari tomonidan imzolandi tarzida tarjima qilinadi. Bu o‘rinda majhul nisbat shakli saqlab qolinadi. Biroq ayrim holatlarda o‘zbek tilining tabiiy sintaktik qurilishiga mos ravishda Ikki davlat vakillari bitimni imzoladilar shaklidan foydalanish ham mumkin bo‘ladi. Bunday tanlov matnning rasmiylik darajasiga, muallif niyatiga va axborot markazining qayerga tushayotganligiga bevosita bog‘liqdir.

Rus tilidagi Стороны подтвердили готовность к дальнейшему сотрудничеству jumlasi Tomonlar kelgusida hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini tasdiqladilar tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda подтвердили готовность birikmasini tayyorlikni tasdiqladilar deb so‘zma-so‘z o‘girish mumkin bo‘lsa-da, o‘zbek tilida mazmunan va usluban tabiiyroq sintaktik shaklni tanlash maqsadga muvofiqdir. Tarjimada grammatik shaklni saqlashdan ko‘ra, uning mazmuniy

va kommunikativ vazifasini to‘g‘ri hamda aniq yetkazish ustuvor hisoblanadi.

Siyosiy matnlarda inkor shakllari va modal birliklar ham muhim semantik hamda siyosiy yuk tashiydi. Masalan, The government does not recognize the legitimacy of the decision jumlasini Hukumat ushbu qarorning qonuniyligini tan olmaydi deb tarjima qilish mumkin. Bu yerda does not recognize birikmasi oddiy inkor emas, balki rasmiy siyosiy pozitsiyani ifodalaydi. Shuning uchun tarjimada inkor shaklining o‘rni va ta’sir kuchini o‘zgartirib yubormaslik, uning siyosiy vazminligini saqlash zarurdir.

Diplomatik matnlar boshqa rasmiy-idoraviy matnlardan, avvalo, muomala madaniyati hamda pragmatik maqsadining o‘ta nozikligi va vazminligi bilan farqlanadi. Diplomatik muloqotda fikrni bevosita va keskin ifodalashdan ko‘ra, muayyan vaziyatda siyosiy keskinlikni kamaytirish, tomonlar o‘rtasida muloqot imkoniyatini saqlash hamda murosaga zamin yaratish maqsadida bilvosita va evfemik ifodalardan foydalaniladi. Masalan, ingliz tilidagi We encourage all parties to continue dialogue jumlasi Barcha tomonlarni muloqotni davom ettirishga undaymiz tarzida tarjima qilinadi. Biroq matnning diplomatik ohangiga va kontekstiga qarab, Barcha tomonlar muloqotni davom ettirishiga umid bildiramiz shakli ham qo‘llanishi mumkin. Birinchi variantda undash va taklif ma’nosi kuchliroq bo‘lsa, ikkinchi variantda muloyim diplomatik munosabat va umid ifodalanadi. Demak, tarjimon nafaqat so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini, balki nutqiy ta’sir va diplomatik etikettan kelib chiqadigan pragmatik niyatni ham to‘liq hisobga olishi kerak.

Rus tilidagi Выражаем обеспокоенность сложившейся ситуацией jumlasi Yuzaga kelgan vaziyatdan xavotir bildiramiz tarzida tarjima qilinadi. Ushbu ibora diplomatik bayonotlarda tanqid yoki norozilikni nisbatan yumshoq, vazmin va diplomatik shaklda yetkazish uchun xizmat qiladi. Uni Vaziyat bizni tashvishga solmoqda deb berish ham mumkin, biroq rasmiy-diplomatik matnda birinchi variant uslubiy jihatdan aniqroq va standartroq ko‘rinadi.

Diplomatik tarjimada murojaat shakllari, hurmat ifodalari, ehtiyotkor modal birliklar va siyosiy neytrallik ham ustuvor o‘rin tutadi. Masalan, I would like to emphasize iborasi kontekstga qarab Shuni alohida ta’kidlamoqchimanki yoki Alohida ta’kidlash joizki shaklida berilishi mumkin. Tarjima variantini tanlashda nutq egasining maqomi, hujjat turi va mo‘ljallangan auditoriya xususiyatlari har taraflama e’tiborga olinadi. Shu jihatdan siyosiy-diplomatik tarjima faqat ikki til grammatikasi hamda lug‘at boyligini bilishni emas, balki xalqaro munosabatlar, siyosiy kommunikatsiya va rasmiy muomala madaniyatini ham chuqur tushunishni talab etadi. Tarjimonning vazifasi matndagi axborotni yetkazish bilan birga, muallifning kommunikativ niyatini va bayonotning diplomatik ohangini o‘zgartirmasdan saqlashdan iboratdir.

Siyosiy va diplomatik matnlarning sifatli, adekvat hamda aniq tarjimasini ta’minlash uchun matnni bir necha bosqichda lingvistik tahlil qilish va qayta ishlash maqsadga muvofiqdir. Dastlabki bosqichda matnning janri, maqsadi, muallifi va mo‘ljallangan auditoriyasi aniqlanadi, matnning institutsional tabiati o‘rganiladi. Keyingi bosqichda terminlar, barqaror birikmalar, modal birliklar va murakkab sintaktik qurilmalar ajratib olinib, ularning semantik ko‘lami tahlil qilinadi. Shundan so‘ng tarjima varianti tanlanib, uning mazmuniy, pragmatik va uslubiy muvofiqligi qayta tekshiriladi.

Bu murakkab jarayonda terminologik izchillik alohida ahamiyatga ega. Bir hujjat yoki bayonot doirasida ayni bir siyosiy-huquqiy tushunchaning turli o‘rinlarda turlicha tarjima qilinishi matnning yaxlitligiga hamda huquqiy qimmatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli tarjimon soha lug‘atlariga, rasmiy axborot manbalariga va xalqaro hujjatlardagi muqobil shakllarga tayanib ish ko‘rishi lozim.

I. G‘afurov, O. Mo‘minov va N. Qambarov tomonidan ishlab chiqilgan tarjima nazariyasiga oid qarashlar tarjima jarayonini bosqichma-bosqich va tizimli o‘rganish uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Tarjimonning til kompetensiyasi bilan bir qatorda, matn mazmunini tahlil qilish, kontekstni anglash va muqobil ifodalarni to‘g‘ri tanlash ko‘nikmasi ham tarjima sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy sharoitda elektron lug‘atlar, parallel korpuslar va terminologik ma’lumotlar bazalaridan foydalanish tarjima jarayonini ancha yengillashtirmoqda. Biroq avtomatlashtirilgan yoki mashina tarjimasi vositalari siyosiy-diplomatik matnlarda uchraydigan nozik pragmatik ma’nolarni, evfemizmlarni hamda ehtiyotkor diplomatik ohangni har doim ham to‘g‘ri bera olmaydi. Masalan, biror iboraning lug‘aviy muqobili kompyuter dasturi tomonidan to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa-da, uning rasmiy bayonotdagi diplomatik ruhi yoki neytralligi yo‘qolishi mumkin. Shu bois avtomatik tarjima natijalari har doim mutaxassis-tarjimon tomonidan sinchkovlik bilan tahrir qilinishi hamda kontekst asosida tekshirilishi shartdir.

Tarjima sifatini va adekvatligini baholashda quyidagi mezonlarga tayanish lozim bo‘ladi: birinchidan, asliyatdagi asosiy va qo‘shimcha axborotning to‘liq hamda aniq saqlanishi; ikkinchidan, termin va tushunchalarning sohaga hamda xalqaro huquq normativlariga muvofiq qo‘llanishi; uchinchidan, grammatik va sintaktik qurilmalarning o‘zbek tili rasmiy-siyosiy uslubi me’yorlariga to‘liq mosligi; to‘rtinchidan, matnning diplomatik vazminligi hamda ehtiyotkorona ohangini saqlash; beshinchidan, tarjimada ortiqcha izoh, mantiqsiz qisqartirish yoki mazmunni o‘zgartiruvchi asossiz qo‘shimchalarga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Siyosiy va diplomatik matnlar tarjimasi lingvistik bilim, sohaviy kompetensiya, mantiqiy va kommunikativ tafakkurning yuksak uyg‘unligini talab qiladigan murakkab hamda mas’uliyatli jarayondir. Bunday matnlarni tarjima qilishda terminologik aniqlik, semantik muvofiqlik, grammatik to‘g‘rilik hamda pragmatik mazmunni saqlash eng asosiy mezonlar hisoblanadi. Ingliz, rus va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tarjima jarayonida ayrim birliklarning lug‘aviy muqobili mavjud bo‘lsa-da, ularning rasmiy-siyosiy kontekstdagi ma’nosi va yuklamasi alohida tahlilni talab etadi.

Tahlillar va o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, siyosiy-diplomatik matnlar tarjimasida so‘zma-so‘z yondashuv yoki kalkalash har doim ham kutilgan va aniq natijani bermaydi. Tarjimon matnning janri, kommunikativ maqsadi, institutsional xususiyati hamda madaniy-siyosiy kontekstini to‘liq hisobga olgan holda muqobil lisoniy birliklarni tanlashi lozim. Ayniqsa, xalqaro munosabatlarga oid hujjatlar va rasmiy yozishmalarda terminlarning izchil qo‘llanishi hamda

diplomatik munosabat ohangining saqlanishi muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tarjimashunosligida siyosiy va diplomatik matnlar tarjimasining amaliy hamda nazariy bazasini yanada takomillashtirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, xalqaro munosabatlar va siyosiy-diplomatik sohaga oid o‘zbekcha, inglizcha va ruscha ko‘p tilli terminologik va frazeologik lug‘atlarni muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqish hamda ularni zamonaviy neologizmlar bilan boyitib borish lozim.

Ikkinchidan, siyosiy diskursda va xalqaro muloqotda yangi paydo bo‘layotgan tushunchalarning o‘zbek tilidagi rasmiy va institutsional muqobillarini birxillashtirish (standartlashtirish) ishlarini jadallashtirish zarur.

Uchinchidan, oliy ta’lim muassasalarida tarjimon kadrlarni tayyorlashda siyosiy va diplomatik matnlarning pragma-lingvistik xususiyatlarini hamda ularning uslubiy nozikliklarini chuqur o‘rgatishga qaratilgan amaliy kurslar hajmini oshirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy va diplomatik matnlar tarjimasini lingvistik, pragmatik va semantik jihatdan tizimli hamda kompleks o‘rganish tarjima nazariyasining amaliy imkoniyatlarini va ilmiy salohiyatini keskin kengaytiradi hamda zamonaviy xalqaro muloqot va diplomatik munosabatlarda mazmuniy aniqlik, huquqiy moslik hamda davlatlararo o‘zaro hamkorlikni yuksak darajada ta’minlashga bevosita xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Salomov G‘. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 272 b.
[2] Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. – 352 b.
[3] G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – 216 b.
[4] Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 248 b.
[5] Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – 232 b.
[6] Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
[7] Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. – London: Routledge, 2018. – 390 p.
[8] Šarčević S. New Approach to Legal Translation. – The Hague: Kluwer Law International, 1997. – 308 p.
[9] Robinson D. Becoming a Translator: An Introduction to the Theory and Practice of Translation. – London: Routledge, 2012. – 300 p.
[10] Bell R. T. Translation and Translating: Theory and Practice. – London: Longman, 1991. – 298 p.